



MIGRATION OF THE EASTERN SLAVIC DIASPORA IN TURKESTAN (1918–1924) AND ITS SPECIFIC CHARACTERISTICS

S.F. Norbekov

Assistant at the Department of Physical Education and Humanities

Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Turkestan, East Slavs, diaspora, migration, settlement, 1918–1924.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: The article examines the formation of the East Slavic diaspora in Turkestan in 1918–1924. It identifies the main migration waves during the Civil War and early NEP, outlines the social composition of migrants and urban groups, and highlights key settlement areas linked to administrative centers and the railway network.

TURKISTONDA 1918–1924-YILLARDA SHARQIY SLAVYAN DIASPORASINING MIGRATSIYASI HAMDA UNING O‘ZIGA XOS JIHLARI

S.F. Norbekov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot

texnologiyalari universitetining "Jismoniy tarbiya va gumanitar fanlar" kafedrasida assistenti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: ijtimoiy Turkiston, sharqiy slavyanlar, diaspora, migratsiya, joylashuv, 1918-1924.

Annotatsiya: Maqolada 1918-1924-yillarda Turkistonda sharqiy slavyan diasporasining shakllanishi tahlil qilingan. Fuqarolar urushi va yangi iqtisodiy siyosatning dastlabki yillaridagi asosiy migratsiya to‘lqinlari aniqlab berilgan, ko‘chib kelganlar va shahar aholisi guruhlarining ijtimoiy tarkibi tavsiflangan, shuningdek, ma‘muriy markazlar va temir yo‘l tarmog‘i bilan bog‘liq asosiy joylashuv hududlari ko‘rsatib o‘tilgan.

МИГРАЦИЯ ВОСТОЧНОСЛАВЯНСКОЙ ДИАСПОРЫ В ТУРКЕСТАНЕ В 1918–1924 ГОДАХ И ЕЁ СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

С.Ф. Норбеков

Ассистент кафедры физического воспитания и гуманитарных наук

Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: социальная Туркестан, восточные славяне, диаспора, миграция, расселение, 1918–1924.	Аннотация: рассматривается восточнославянской диаспоры в Туркестане в 1918–1924 гг. Выделены основные миграционные волны периода Гражданской войны и первых лет НЭПа, охарактеризован социальный состав переселенцев и городских групп, а также показаны ключевые зоны расселения, связанные с административными центрами и железнодорожной сетью.	В статье формирование диаспоры в Туркестане в 1918–1924 гг. Выделены основные миграционные волны периода Гражданской войны и первых лет НЭПа, охарактеризован социальный состав переселенцев и городских групп, а также показаны ключевые зоны расселения, связанные с административными центрами и железнодорожной сетью.
--	---	---

Kirish. 1918–1924-yillar Turkiston hududidagi sharqiy slavyan (asosan rus) diasporasining shakllanishi o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy beqarorligi bilan chambarchas bog‘liq. Bu davr eng avvalo fuqarolar urushi va uning oqibatlarini (1918–1920) hamda ocharchilik (1921–1922) foni, so‘ngra NEP davri (1923–1924) bilan tavsiflanadi. Shuning uchun 1918–1924-yillar cheklangan muddatda tanlandi: 1918 yilda Turkiston ASSR tashkil etilgan, keyingi yil davomida fuqarolar urushi hamda hokimiyat almashuvi yuz berdi. 1921–22-yillardagi katta ocharchilik esa sharqiy slavyan aholisining Turkistondan ommaviy ko‘chishida yangi omil bo‘ldi. Ushbu xronologik kontekst diasporaning migratsiya to‘lqinlari, ijtimoiy tarkibi va mehnat bozoridagi roli o‘zgarishini tahlil qilish uchun muhim zamin yaratadi.

Muhokama va natijalar. Turkiston hududida 1918–1924 yillar davomida yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar asoratida Sharqiy Slavyan diasporasining shakllanishi va boshqa etnik jamiyatlar bilan o‘zaro aloqalari o‘ziga xos tarixiy fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu diasporaning tarixiy yo‘li nafaqat etnik madaniyatlararo munosabatlar, balki o‘zgaruvchan siyosiy strukturalar, iqtisodiy taqsimot va ma‘rifiy-infratuzilma jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, Turkistonning sovet davridagi transformatsiyasi kontekstida yuksak ilmiy ahamiyatga ega. Shuningdek, diasporaning hududiy joylashuvi, ko‘chish oqibatlarini va mahalliy jamiyatlar bilan o‘zaro integratsiya jarayonlari, bugungi diasporaviy munosabatlar, madaniyatlararo aloqalar va etnik xilma-xillik siyosatining nazariy va amaliy tashxisini rivojlantirish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Diaspora atamasi yunoncha “tarqalish” ma’nosidan kelib chiqqan bo‘lib, hozirgi adabiyotda u o‘z tarixiy vatani tashqarisida yashovchi etnik-guruhlarini anglatadi Masalan, Markaziy Osiyo xalqlarining 1917-yilgi inqilobdan keyingi muhojirlik to‘lqinlari qo‘shni mamlakatlarda

diasporalarning yuzaga kelishiga olib keldi. Shunga o'xshab, Turkistondagi ruslar va boshqa sharqiy slavyan aholisining ham 1918–1924-yillar mobaynida ko'chib yurishi ularning mahalliy diasporasi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Diasporani o'rganishda uning vaqtinchalikligi va integratsiyaga intilishi, ya'ni mahalliy jamiyatga qo'shilish yoki vataniga qaytish umidi e'tiborga olinadi.

Dolzarflik jihatidan, mazkur mavzu tarixiy-huquqiy faktlarni tiklash nuqtai nazaridan ahamiyatlidir. Turkiston sharqiy slavyan diasporasining ijtimoiy-iqtisodiy tarkibi va geografik joylashuvini o'rganish – 1917–1924-yillardagi mintaqa tarixiga chuqurroq tushuncha beradi. Bu davr ijtimoiy transaksiyalari, demografik o'zgarishlari va milliy harakatlariga doir ma'lumotlar tarixshunoslik uchun qimmatli manba hisoblanadi.

Manbalar doirasiga kelsak, tadqiqotda asosan arxiv hujjatlari, rasmiy statistika ma'lumotlari, zamonaviy tarixshunoslik ishlari tahlil qilingan. Amaliyotda, masalan, tadqiqot metodologiyasida ilmiy adabiyotlar va arxiv materiallarini o'rganish va tahlil qilish, Statistik va tarixiy tahlil usullari qo'llangan. Bunday yondashuv Turkistondagi sharqiy slavyan diasporasining shakllanish omillarini - fuqarolar urushi, ichki ko'chishlar, bandlik tuzilmalaridagi o'zgarishlar va geografik tarqalishini aniqroq tasvirlashga yordam beradi.

Sharqiy slavyanlarning ommaviy ko'chib kelishiga bir qator omillar sabab bo'ldi. Sovet hokimiyati, shaxslar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi tenglikni ta'minlash, agrar inqilob va yangi sotsialistik tuzumni joriy qilish uchun ishchi kuchlariga ehtiyoj sezgan[4, p.77-79]

1918–1920-yillar Turkistonda siyosiy notinchlik kuchaydi. 1917-yilning to'ntarishlari natijasida bolsheviklar Toshkentda hukmronlik o'rnatdi, 1918-yilda esa Turkiston ASSR tuzilgan. Bu davrda Qo'qonda Turkiston muxtoriyati hukumatining ag'darilishi, Kolchak va boshqa oq harbiylarning mag'lub bo'lishi, hamda Buxoro va Xiva amirliklarining qulashi kabi voqealar yuz berdi [1, p.63].

Fuqarolar urushi ta'sirida Markaziy Osiyoda qonli to'qnashuvlar va tartibsizliklar boshlandi. Natijada turli guruhdagi aholi – xususan sharqiy slavyanlar (asosan rus) jamoalari orasida evakuatsiya va ko'chish sxemalari yuzaga keldi. Misol uchun, Kolchak qo'shini mag'lubiyatga uchragach, uning ittifoqchilari Turkiston chegarasidan Xitoy tomon o'tishga majbur bo'ldi – 1920-yilda Semirechiye hududidagi deyarli 20 ming rus kazaklari hamda 50 ming rus dehqon ko'chmanchilari Xitoyning Shinjon viloyatiga yo'l olgan. Umuman olganda, bu birinchi migratsiya to'loqini Turkistonda bolshevik hokimiyatining o'zlashtirilishi, ichki hukumatlar almashuvi bilan bog'liq bo'ldi [1, p.63].

1921–1922-yillarda Turkiston va qo'shni hududlarda qattiq ocharchilik hukm surdi. Markaziy Osiyoda ham qurg'oqchilik va oziq-ovqat muammolari yuzaga keldi. Ma'lumki, 1917–1923-yillarda eski imperiya iqtisodiy tizimining qulashiga bog'liq ocharchilik yuz minglab

odamlarni hayotdan olib ketdi. [2,p.63]. 1917-yildanoq boshlangan oziq-ovqat taqchilligi va uning diasporaga oid ayrim holatlari xususida to'xtalib o'tsak, oziq-ovqat ta'minotiga oid qayd etilgan kamchiliklar qatorida, adolatsiz oziq-ovqat taqsimotini ham keltirish mumkin. Ta'kidlash joizki, Turkistonda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash ishlari ham yagona boshqaruv tizimi asosida bo'lmay, bir paytning o'zida: erli aholini oziq-ovqat bilan ta'minlovchi qo'mitasi alohida, rus aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlovchi qo'mita alohida ish olib borganlar. Mavjud arxiv manbalari shundan dalolat beradiki, amalga oshirilgan ishlar muvofiqlashtirilgan holda olib borilmagan. Xususan, bu ahvol taqsimotdagi nomutanosibliklarda ko'zga tashlanadi. yerli va rus aholi o'rtasida oziq-ovqat mahsulotlarini Masalan, 1917 yil sentyabrda Avliyoota shahrining 24 ming aholisi uchun 13 vagon g'alla berish ko'zda tutilgan bo'lsada, oradan bir oy o'tsa ham yerli aholiga hech narsa berilmagan. Boz ustiga, 1917 yil 15 avgustidan 17 oktyabriga qadar Avliyootaning yerli aholisi oziq-ovqat qo'mitasi tomonidan hech qanday g'alla bilan ta'minlanmagan. Ammo ayni paytda rus aholisi, juda oz bo'lsa-da, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab turilgan [3, p.296]. Boz ustiga, Avliyootaga g'alla keltirilganda ham nohaq taksimot ishlari olib borilgan. Aytish mumkinki, g'alla taqsimotida, yerli aholiga nisbatan ruslarga e'tibor ko'proq bo'lgan. Chunki taqsimot ishlarida asosan ruslar hal qiluvchi rol o'ynagan. Masalan, 1917 yil oktyabridagi ma'lumotga ko'ra, 3 vagon unni, berilgan va'daga ko'ra, musulmon aholi hisobiga taqsim qilingan bo'lsa-da, amalda rus oziq-ovqat qo'mitasi xisobiga unning yarmini, rus aholisi bo'lishiga qaramasdan, ya'ni 1,5 vagonini rus aholisi ochlariga son jihatdan kam olib ko'yilgan. Berilgan ma'lumotga ko'ra, agar oziq-ovqat qo'mitasi shunday yo'l tutmagan taqdirda, mazkur qo'mita a'zolari "och rus aholisi tomonidan o'ldirilardi", chunki Avliyoota rus oziq-ovqat qo'mitasi ixtiyorida biror funt ham un qolmagan edi. Bunday tartib, o'z navbatida "adolatsiz taqsimot" deb qabul qilingan edi. Aytish taqsimotidagi adolatsizliklarni davom etishi, xususan, yerli aholi ta'minotiga nisbatan rus aholisini ta'minlash ishlariga e'tiborni kuchaytirilishi, ma'lum bir noroziliklarga olib kelgan. Xususan, Avliyootadagi tomonidan erli aholi oziq-ovqat qo'mitasiga tegishli unni rus oziq-ovqat qo'mitasi olinishi yerli aholi o'rtasida keskin norozilik uyg'otdi. Natijada yerli aholi va "oziq-ovqat qo'mitasi a'zolari to'la tarkibda shahar boshlig'iga borib, bu jarayonga izoh talab qilishgan [3, p.296].

Ammo Avliyoota shahar boshlig'i bunga "tushuntirish" bera olmagan...

Vujudga kelgan holatdan kelib chiqib, Avliyoota shahar boshlig'idan qilingan murojaatda hamon erli aholi sabr-toqat qilayotgani, bunday holat... oxir-oqibatda aholining sabr- kosasini to'lishiga olib kelishi, "sabr-toqat oshqozon talabiga bardosh bera olmay qolishi mumkin, chunki rus aholisi yerli aholining deyarli og'zidan rizqini tortib olyapti" - deyilgan. Mazkur talablar ichida yerli aholi oziq-ovqat qo'mitasi a'zolari och aholi o'z qornini, bola-chaqasini to'yg'azish yo'lida hech bir to'siqdan qaytmasligini uqtirib, "yerli aholi tomonidan kuyidagi mazmunda qo'rqitish

eshitilyapti: pichoq bilan yerli aholi oziq-ovqat qo‘mitasiga hujum qilish kerak. ...Yerli aholi tomonidan bu qo‘rqitishlar ijrosi uzoq emas va ayni paytda har kuni ruslar tomonidan ocharchilik g‘alayoni kutilmoqda... bu holatda ruslarni, shahar oziq-ovqat qo‘mitasi a‘zolarini va hatto shahar boshqaruvi a‘zolarining hayotini saqlab qolishga umid qilish qiyin" - deyiladi [3, p.296].

Avliyootada oziq-ovqat muammosi echimidagi holatlar nafakat yerli aholi, balki rus aholisi oziq-ovqat qo‘mitalarida ham o‘z ta‘siriga ega edi. Ta‘minotdagi uzilishlar echimida berk ko‘chaga kirib qolish, oxir-oqibatda aholining yerli millatlarga mansublari va rus aholisiga taalluqlarini ham tegishli oziq-ovqat boshqarmalari va qo‘mitalari faoliyatida ishtirok etishdan bosh tortishiga olib keldi. Natijada shahar boshlig‘i har kuni oziq-ovqat boshqarmasi a‘zolarini sabr-toqatga va bu borada ishlab turishga iltimos qilishiga... Tom ma‘noda, bu odamlarni xizmatda [majburan ushlab turishiga to‘g‘ri kelgan. [3, p.296].

Turkistonda yashovchi diaspora ham bu inqirozga mahalliy aholidek uchrashgani sababli, ozuqa yetishmovchiligi ko‘plab xatarlarga sabab bo‘ldi. Ayniqsa 1921-yili muvozanatni himoya qilish maqsadida ba‘zi mahalliy rus dehqonlari majburan ko‘chirish operatsiyalari boshlandi: masalan, Sovet hokimiyati Semirechiye hududida kuzatilgan voqealar asosida bir necha ming rus dehqonini urug‘lik yerlari va mol-mulkdanh musodara qilib, ularni Turkiston hududidan haydashga uringan [2, p.63].

Bu jarayon ba‘zi rus oilalarining Turkistondan olib chiqilishini anglatardi. Shu bilan birga, ocharchilik ta‘sirida aholining ichki harakati kuchaydi: qishloqdan shaharlarga migratsiya, ayrim oilalarning Turkistondan qochishi kuzatildi (masalan, ba‘zi rus oilalari ko‘cha-boshloqlar orqali chegaradosh davlatlarga yo‘l ola boshladi). Bu davrda statistik ma‘lumotlar cheklangan bo‘lsa-da, turli manbalarda ichki migratsiya va Turkistondan chetga chiqish to‘lqinlari qayd etilgan.

Evakuatsiya va harbiy harakatlar sababli ayrim rus fuqarolari Turkiston hududini tark etishga majbur bo‘ldi, boshqalari esa temiryo‘l va ma‘muriy markazlarda qoldi.

1921–1922-yillarda Turkiston va qo‘shni hududlarda qattiq ocharchilik avj oldi. Qurg‘oqchilik, harbiy harakatlar va Markazning siyosiy noaniqlik bu mintaqada mehnat bozoridagi taqchilik va oziq-ovqat tanqisligiga olib keldi. Natijada asosan rus va boshqa sharqiy slavyan qishloq aholisi orasida migratsiya to‘lqinlari boshlandi. Bunday omillar tufayli chekka viloyatlardagi qishloq ruslari ommaviy ravishda shahar markazlariga va temiryo‘l yo‘llari bo‘yiga qayta joylashishga intildi. Misol uchun, Samarqand va Toshkent shaharlariga chekka hududlardan katta miqdorda migrantlar kelgani qayd etilgan. O‘sha yillarda mahalliy gazetalarda “qishloqlar bo‘shab qoldi, odamlar shahar tomon yurmoqda” degan xabarlar tez-tez chiqa boshladi.

Shuningdek, Turkiston uchun muhim voqealardan biri 1921-yilda “kulak rus” dehqonlariga qaratilgan repressiya kampaniyalarining boshlanishi bo‘ldi. V.L. Genisning ta‘kidlashicha, 1921-yilda Turkiston inqilobchi hukumatiga qarshi kurashda gumon qilingan minglab rus dehqonlari

hibsga olinib, ularning mol-mulki musodara qilindi (“Safarov ishi”) – bu ommaviy ko‘chishlarning birinchi yirik epizodi edi. Mazkur repressiyalar natijasida ayrim rus qishloqlari deyarli bo‘shab qoldi va aholisi yaqin atrofdagi temiryo‘l va aholi markazlariga tarqaldi.

Qishloqdan chegaradosh viloyatlarga ham emigratsiya kuzatildi. 1922-yilga kelib Turkistonda jismonan iste‘mol mahsuloti yetishmovchiligidan qo‘rqib, minglab odam chet elga yoki boshqa karam shaharlariga ko‘chish yo‘lini tutdi. Arabiston va Eron yo‘nalishida ham oz sonli qochqinlar ko‘ringan, ammo asosan migratsiya O‘zbekiston va Turkmanistonning shahar chekka hududlari tomon qaratildi. Shahar-ko‘chalardagi ro‘yxatga olish ma‘lumotlariga ko‘ra, 1922-yilda Toshkent, Buxoro, Samarqand, Ashg‘obod va Marv kabi katta markazlar atrofida sharqiy slavyan diasporasi ancha konsentratsiyalashgan edi. Shu yillarda ko‘chish oqimlari hattoki qishloq xo‘jaligi resurslaridan badarg‘a qilish siyosatini ham qamrab oldi: masalan, Qozog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasida paxta bo‘linish bilan bog‘liq ayrim masalalarda mahalliy rus dehqonlariga nisbatan majburan ko‘chishlar boshlandi.

1921–1922-yillardagi ocharchilik jamiyatning ijtimoiy tuzilmasiga ham ta‘sir ko‘rsatdi. Shu davrda diaspora vakillari asosan mehnatkash sinflardan iborat bo‘lib, ko‘chishlar natijasida temiryo‘lchi va sanoatchilarning ulushi oshdi. Qishloq xo‘jaligi sohasida ruslarning proportioni qisqardi, ayrimlari yer va mulklar musodara qilingani sababli o‘z kasbini o‘zgartirishga majbur bo‘ldi. Buning o‘rniga shaharlarda va infratuzilmada - temiryo‘l bo‘limlari, zavod va konlarda diaspora vakillari qo‘li kuchaydi, masalan, 1922-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, Toshkent va Samarqand transport bo‘limlarida ishlovchi texnik xodimlarning taxminan yarmini diaspora vakillari tashkil etgan.

Shunday qilib, 1921–1922-yillardagi ocharchilik va siyosiy bosim Turkistonda sharqiy slavyan diasporasining ko‘chishlarini yangi bosqichga olib chiqdi. O‘sha yillarda nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri oziq-ovqat yetishmovchiligi sababli ichki migratsiya kuchaydi, balki repressiv choralar ham diasporaning geografik va ijtimoiy tarkibini sezilarli o‘zgartirdi.

Masalan, Turkiston arxividan olingan hujjatlar va tadqiqotlar tahliliga ko‘ra, birgina Samarqand viloyatidan 1922-yilda o‘n minglab rus dehqonlari shaharlarga ko‘chib o‘tganligini ko‘rsatadi. Keyingi izlanishlar ushbu ko‘chishlarning iqtisodiy-siyosiy omillari va mahalliy ijtimoiy muhitga ta‘siri haqida kengroq ma‘lumot beradi.

Umuman olganda 1920–1930-yillar Turkiston o‘lkasi uchun tub geosiyosiy va demografik o‘zgarishlar davri bo‘lib, ushbu jarayonda slavyan diasporasining, xususan, ukrain, belorus va rus aholisining ko‘chib kelish jarayoni strategik ahamiyat kasb etdi. KPTning VI krayevaya konferensiyasida (1922) ko‘tarilgan masalalardan biri - NEP siyosatining sharqiy slavyan aholisi tomonidan qanday qabul qilingani bo‘lib, konferensiyada bu siyosat yer islohotlari tugatilishi deb baholangani ta‘kidlandi.

NEP va “barqarorlashuv”ning ijtimoiy-demografik mazmuni 1923–1924-yillar Turkiston (avval Turkiston ASSR doirasida) uchun fuqarolar urushi va ocharchilikdan keyingi nisbiy stabilizatsiya bosqichi bo‘ldi. NEP sharoitida bozor elementlarining qayta tiklanishi, pul-moliya va ta‘minot tizimining izga tushishi, kooperatsiya va kichik savdoning jonlanishi aholining harakatchanligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, 1924-yil yakuniga kelib boshlangan milliy-hududiy chegaralanish (ma‘muriy qayta taqsimlash) statistika yuritilishi, ro‘yxatga olish va “kim qayerda yashaydi?” kabi savollarga beriladigan javoblarni ham murakkablashtirdi: 1923–1924 ko‘rsatkichlarini tahlil qilganda hududiy birliklarning o‘zgarishi albatta inobatga olinishi kerak.

Demografik oqibatlar nuqtayi nazaridan, bu davr: urush yillaridagi favqulodda evakuatsion ko‘chishlar kamayishi, ocharchilik fonidagi ommaviy chiqib ketishlarning pasayishi, mehnat bozori qayta shakllangani bilan xarakterlanadi.

Sharqiy slavyan (asosan rus) diasporasi migratsiyasi: favqulodda oqimlardan “mehnat” motivlariga o‘tish 1918–1922-yillarda rus (hamda ukrain, belorus) aholisi harakati ko‘p jihatdan harbiy-siyosiy va inqiroz omillari bilan belgilangani holda, 1923–1924-yillarda migratsiyaga ta‘sir sabablari asta-sekin o‘zgarib boshlaydi. Fuqarolar urushi paytida vaqtincha ko‘chganlarning bir qismi eski ish joylari va shaharlarga qaytadi; boshqalar esa NEPdagi nisbiy iqtisodiy imkoniyatlar sabab Turkistonda qolishni afzal ko‘radi.

Davlat apparati va xo‘jalik boshqaruvi barqarorlashuvi natijasida sovet idoralari, temiryo‘l boshqarmalari, aloqa, moliya va ta‘minot tizimlarida rus tilidagi ish yuritish amaliyotining davom etishi sharqiy slavyan kadrlariga talabni saqlab turdi. Mutaxassislar oqim temiryo‘l, energetika, paxta tozalash, irrigatsiya, shahar kommunal xo‘jaligi va qurilish yo‘nalishlarida malakali ishchi va texnik kadrlarga ehtiyoj kuchaydi. Bu esa “oddiy ko‘chib kelish”dan ko‘ra ko‘proq ish bilan bog‘langan migratsiya ulushini oshirdi.

Milliy-hududiy chegaralanishdan keyingi qayta ro‘yxatga olish, idoralar ko‘chishi va kadrlar rotatsiyasi rus diasporasining ayrim guruhlarini yangi markazlarga (yoki aksincha, “markazlashgan” idoralardan chekkaroq joylarga) siljitadi. Natijada 1923–1924-yillarda rus diasporasi uchun migratsiya dinamikasi “inqirozdan qochish”dan ko‘ra ko‘proq iqtisodiy moslashuv va institutsional ish o‘rinlariga bog‘lanish bilan izohlanadigan ko‘rinishga o‘tadi.

O‘rganish jarayonida ijtimoiy-kasbiy tarkibda ham, ulushlarning qayta taqsimlanishi NEP davrida diasporaning ijtimoiy tarkibida quyidagi tendensiyalar kuzatiladi:

Sanoat va transport ishchilari ulushining nisbiy barqarorlashuvi jarayonida temiryo‘l (lokomotiv brigadalari, depo, stansiya xodimlari), aloqa, ombor-logistika tizimlarida sharqiy slavyanlar ulushi ancha sezilarli oshganligi va shahar sanoati (paxta tozalash, un,yog‘-moy, ta‘mirlash ustaxonalari)da rus va ukrain ishchilari ulushi odatda yuqori qayd etilganligini sezish

mumkin bo'lsa, ma'muriy apparat, ta'lim va sog'liqni saqlashdagi sohasida kadrlar yetishmasligi sabab rus diasporasi vakillari o'qituvchilik, feldsherlik, hisobchi, kotibiyat, texnik-nazoratchi kabi lavozimlarda ko'proq uchraydi. Biroq 1923–1924-yillardan boshlab mahalliy kadrlarni tayyorlash siyosati kuchaygani sari ayrim idoralarda sharqiy slavyanlar ulushi sekin kamayish yo'liga kiradi [3, p.40].

NEP “bozor nafasi” olib kirish natijasida savdo va xizmatlar sohasidagi o'zgarishlar yangi ijtimoiy qatlamlarni shakllanishiga ham turtki bera oladi. Kichik savdo, umumiy ovqatlanish, ustachilik, xizmat ko'rsatish (sartarosh, poyabzal ta'miri va h.k.) sohalarida rus shahar aholisi faolligini ko'rish mumkin. Kooperatsiya va artellar tarkibida ham rus/ukrain ishchilarining ulushi qayd etiladi.

Qishloq xo'jaligi sohasida ularning ulushida hududiy tafovutlarni sezish mumkin. Rus diasporasi qishloq segmentida (ayniqsa ko'chmanchi emas, o'troq dehqonchilik hududlarida) alohida “rus posyolkalari” orqali statistikada ajralib turadi. Biroq 1923–1924-yillarda umumiy manzarada rus diasporasining asosiy joylashuv o'rni baribir shahar va transport yo'laklari atrofida saqlanib qoladi.

1923–1924-yillarda joylashuv geografiyasida, temiryo'l va ma'muriy markazlar omilini ham inobatga olish kerak. NEP davridagi nisbiy iqtisodiy jonlanish rus diasporasining hududiy joylashuvini yanada “mantiqan izchil” qiladi: bunda ular ish o'rni qayerda bo'lsa - konsentratsiya ham o'sha yerda. Temiryo'l yo'laklari: stansiyalar, ustaxonalariga yaqin shaharcha va posyolkalar rus aholisi ulushi yuqori bo'lgan nuqталardan bo'lib qoladi.

Ma'muriy markazlarga joylashuv jarayonida esa Turkiston ASSRning yirik boshqaruv shaharlari va 1924-yil chegaralanishidan keyin yangi respublika va oblast markazlariga aylangan hududlar kadrlar migratsiyasi hisobiga sharqiy slavyan diasporasini jalb qilgan.

Sharqiy slavyan diasporasining Turkistonga ko'chirilishi, bu hududdagi demografik tarkibni katta darajada o'zgartirdi. Rus, ukrain, belorus va boshqa slavyanlar Turkistondagi katta shaharlar va sanoat zonalarida yashashga joylashtirildi [7, p.287] Bu o'zgarishlar mahalliy aholi tarkibidagi demografik holatni murakkablashtirdi, chunki slavyanlar o'z milliy va ijtimoiy tuzilmalarini saqlab qolishga harakat qilgan bo'lsa-da, ularning sotsial-iqtisodiy manfaatlari bilan mahalliy aholi manfaatlari ko'p hollarda ziddiyatli bo'lgan.

Sovet hukumati milliy siyosatda “internatsionalizm” g'oyasini ilgari surar ekan, bu norma amalda ruslashtirish siyosatini yashirin tarzda izchil amalga oshirishga aylandi. Tashkiliy, madaniy va ta'lim siyosatlari orqali mahalliy tillar va milliy an'analarga nisbatan qattiq cheklovlar joriy qilindi. Sharqiy slavyan diasporasining asosiy maqsadi-ruslashishga yo'naltirilgan bo'lib, shuningdek, sovet jamiyatiga integratsiyalanishga majbur bo'lishdi.

Ushbu ish Turkistonda 1918–1924 yillarda sharqiy slavyan diasporasining shakllanish jarayonini ijtimoiy-siyosiy beqarorlik bosqichlarida o‘rganib, uch asosiy migratsiya to‘lqinini va ularning ijtimoiy tarkibini aniqlab berishga qaratilgan. Fuqarolar urushi davrida, o‘sha davrga xos qiyin sharoitlarda (1918–1920) va ocharchilik (1921–1922) sharoitida yuzaga kelgan ko‘chishlar diasporaning hududiy joylashuvi, mehnat bozori va mahalliy jamiyatlar bilan integratsiya jarayonlari uchun asymmetrik ta‘minot va ziddiyatlar manbasiga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, diasporaning yuzaga kelishi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, siyosiy inqirozlar va resurslarni bo‘lib berishdagi nomutanosibliklar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy tarkib va hududiy ko‘chish - sharqiy slavyan diasporasi tarkibi ko‘pincha yosh ko‘chiruvchilar, mehnat bozori talablariga mos keluvchi turli qatlamlarga bo‘lingan bo‘lib, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va boshqa iqtisodiy faoliyat tarmoqlarida o‘z o‘rnini topgan. Bu jarayon diasporaning turli hududiy joylashuvturlarini yaratib, mahalliy boshqaruv tizimlari bilan o‘zaro aloqalarda muhim o‘zgarishlar keltirib chiqaradi.

Madaniy-ma‘rifiy hayotga ta‘siri ham sezilarli bo‘lgan. Etnik jamoalarning madaniy integratsiyasi, ta‘lim muassasalari faoliyati va madaniyat uylari kabi institutlar diasporaning madaniy identitetini shakllantirish jarayonida markaziy o‘rin egallagan. Shu nuqtai nazardan, diasporaning siyosiy faolligi va mahalliy boshqaruvdagi ishtiroki ertalabki integratsiya imkoniyatlarini shakllantirgan, biroq ayrim hollarda o‘zining milliy-madaniy o‘zligini saqlab qolish ehtiyojini ham muhim qilib ko‘rsatgan.

1918–1924 yillardagi siyosiy o‘zgarishlar, bolsheviklar hokimiyatiga o‘tish, ichki hokimiyat almashinuvi, kolchakchi armiyalarning yo‘qolishi kabi voqealar diasporaning ko‘chish yo‘llarini o‘zgartirib, ayrim hududlarda oqibatda ma‘lum bir vaqtincha “ko‘chish oqimi”ni shakllantirgan. Oziq-ovqat taqchilligi davrida rus aholisi uchun alohida, yerli aholiga nisbatan esa ortiqcha e‘tibor ko‘rsatish holatlari ijtimoiy-etik o‘zgarishlar, noroziliklar va mahalliy idoralar bilan bo‘linishlar yo‘nalishini ochiq ko‘rsatadi.

Sharqiy slavyan diasporasining 1918–1924 yillardagi tarixi - tarixshunoslik, etnografiya va migratsiya nazariyasi uchun muhim foydalardan biridir. Bu davrning hududiy joylashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, ta‘lim-tarbiya tizimlari va madaniy aloqalar bo‘yicha tahlili uch tomonlama: birinchidan, diasporaning o‘z-o‘zini tashkil etishi va mahalliy jamiyatga kiritilishi; ikkinchidan, turli etnik guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar; uchunchidan, sovet davridagi transformatsiya jarayonlari kontekstida Turkistonda etnik xilma-xillik siyosatini o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotda mavjud arxiv materiallari dan olingan ma‘lumotlar vaqtincha chegaralanganligi sabab diasporaning butun qamrovini to‘liq aks ettirish uchun kelajakda qo‘shimcha manbaalarga, xususan, mahalliy mehnat bozori statistikasi, maktablar faoliyati bo‘yicha yozuvlar, qishloq xo‘jaligi kooperativlari arxivlari va mahalliy diniy-ijtimoiy

tashkilotlar hujjatlariga kengroq murojaat qilish tavsiya etiladi. Shuningdek, diasporaning uzoq muddatli integratsiya yo'llari, o'zbek madaniy kontekstidagi o'zaro aloqalar va voqeaning xalqaro-boshqa mintaqalar bilan bog'liqligi bo'yicha qiyosiy ishlanmalar qimmatli bo'ladi.

1918–1924 yillar Turkistonda sharqiy slavyan diasporasining shakllanishi tarixiy-ma'rifiy, siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy yo'nalishlarini o'zaro bog'lab tahlil qiluvchi kompleks masala bo'lib, uning o'rganilishi Turkiston hududida etnik xilma-xillik siyosatini, migratsiya mexanizmlarini va sovet davridagi iqtisodiy-tuzilma transformatsiyalarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ushbu xulosalar kelajakda ilmiy maqolalar, tezislar va dissertatsiya bo'limlarini yanada boyitish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaev, Kamoludin. *Emigration Within, Across, and Beyond Central Asia in the Early Soviet Period from a Perspective of Translocality*. OpenEdition Books, 2019. 61–88.
2. Pianciola, Niccolò. *The collectivization of agriculture and the Kazak herdsmen 1928–1934*. OpenEdition Journals, 2019.
3. Иброхимов Ш. Туркистонда рус мактаблари ва халқ таълими. Ўзбекистон тарихчиси. 2019, No. 3, p. 48.
4. Қаҳҳоров Н. Тошкент кутубхонаси тарихи. Тошкент: 1978. pp. 77–79.
5. Martin, T. *The Affirmative Action Empire: Nations and Nationalism in the Soviet Union, 1923–1939*. Cornell University Press, 2001.
6. Губаева С.С. *Население Ферганской долины в конце XIX–в начале XX века (этнокультурные процессы)*. Tashkent: Фан, 1991. p. 103.
7. O'z MA, R-31-fond, 1-ro'yxat, 8-ish, 296-varaq 56.
8. O'Z MA, R-31-fond, 1-ro'yxat, 8-ish, 296-varak.
9. Farg'ona viloyatining davlat arxivi. F.435, 1 yig'majild, 35 ish, 287 varaq.